TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Issue 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science

Contents

N.Erdenebayar **B.Jargalsaikhan**	Skiing Tradition of Altai Uriankhai	**4**
E.A.Avazov **Zh.A.Duisheev**	The Andijan Uprising of 1898: Main Issues of Discussion in the Historiography of the Colonial and Soviet Era	**7**
Sh.Kh.Sattarov	Service Diversification And Economic Efficiency	**13**
S.Dj.Saidova	Leadership Competence and Creativity in Managing Challenging Personnel in Higher Education Institutions	**16**
Kh.I.Mamadaliyev	Urban History of the Fergana Valley (1876–1924): A Case Study of Osh	**21**
A.B.Zuftarov	Development of The Service Sector in The Context of the Digital Transformation of Azerbaijan's Economy	**24**
I.K.Usarov **Sh.T.Karimova** **M.Y.Badalbayeva** **A.A.Beknazarov** **Sh.T.Uljayeva**	Enhancing Students' Lexical Competence Through Systematic Use of Authentic Texts: a Task-based and Corpus-supported Methodology	**29**
B.R.Karimov	Challenges in the Development of Turkic Civilization Languages: Perspectives on the Formation of a Common Turkic Language and a Unified Turkic Script System	**32**
N.Juraev	The Philosophy of the Soul and the Heart in Ibn Sina's Thought	**35**
N.Nazarov	Interethnic Relations and Societal Development in Central Asia	**42**
Kh.J.Barotova	The Representation of Nature in the Epic Farhod and Shirin	**46**
Sh.Kh.Buriev	Conservation of Museum Objects and the Preservation of Historical Memory: A Key Factor in Societal Development (The Case of Uzbekistan, 1991–2025)	**50**
K.M.Gulomova	Scientific and Pedagogical Foundations of Fostering Independent Thinking in Higher Education Students	**53**
D.S.Saparboeva	Organizing Didactic Games in Primary Education	**56**
İ.H.Cəbrayılov	Contemporary Approaches to History Education: Challenges of Learning and Teaching	**58**
O.Musaev	Peculiarities of National Policy Implementation in Multinational Countries	**62**
E.Sultanova **R.Hasanov**	The Organization of Turkic States: A Significant Political Actor on the Global Stage	**66**
O.Musaev **Z.Murodova**	The Historical Development of International Relations and the Processes of Their Transformation	**70**
R.Yarkulov	Mechanisms for Improving Students' Creative Engagement through Digital Technologies: A Case Study of the Logistics Education Program	**74**
R.Hasanov	The Person of Amir Temur and His Martyr Art and State Administration	**79**
R.Khalikova	Amir Temur's Personality and Political Activities as Reflected in Historical Sources	**81**

Urban History of the Fergana Valley (1876–1924): A Case Study of Osh

Mamadaliyev Xushnudbek Islomjonovich (Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor.)[1]
saidakbar201209@mail.ru | ORCID ID: 0009-0001-8655-5095
[1.] Tashkent University of Economics and Technologies
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This article analyzes the socio-economic, administrative and cultural development of the cities of the Fergana Valley in 1876–1924 using the example of the city of Osh. The division of cities into "old" and "new" parts, their acquisition of military-strategic importance, and changes in urban planning processes as a result of the colonial policy of the Russian Empire are discussed. Also, the population, administrative-territorial administration, education and medical conditions on the eve of and after the establishment of Soviet power are analyzed based on statistical data. The article scientifically substantiates the demographic and social processes that occurred in the development of the cities of the Fergana Valley under the influence of colonialism and Soviet rule.
Keywords: Ferghana Valley, Osh city, Turkestan Governorate, colonial policy, urban planning, Russian settlements, Soviet power, population, administrative-territorial division, education, medicine, urbanization, Ferghana region, Kokan Khanate.

Farg‘ona vodiysi shaharlari tarixi (1876-1924 yy) (O‘sh shahri misolida)

Mamadaliyev Xushnudbek Islomjonovich (tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent)[1]
saidakbar201209@mail.ru | ORCID ID: 0009-0001-8655-5095
[1.] Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Tashkent, Uzbekistan

Annotatsiya.
Ushbu maqolada 1876–1924 yillarda Farg‘ona vodiysi shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy, ma’muriy va madaniy taraqqiyoti O‘sh shahri misolida tahlil qilingan. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati natijasida shaharlarning "eski" va "yangi" qismlarga bo‘linishi, harbiy-strategik ahamiyat kasb etishi hamda shaharsozlik jarayonlaridagi o‘zgarishlar yoritilgan. Shuningdek, sovet hokimiyati o‘rnatilishi arafasida va undan keyingi davrda aholi soni, ma’muriy-hududiy boshqaruv, ta’lim va tibbiyot sohalaridagi holat statistik ma’lumotlar asosida tahlil etilgan. Maqolada Farg‘ona vodiysi shaharlari rivojida mustamlakachilik va sovet boshqaruvi ta’sirida yuzaga kelgan demografik va ijtimoiy jarayonlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.
Keywords: Farg‘ona vodiysi, O‘sh shahri, Turkiston general-gubernatorligi, mustamlakachilik siyosati, shaharsozlik, rus manzilgohlari, sovet hokimiyati, aholi soni, ma’muriy-hududiy bo‘linish, ta’lim, tibbiyot, urbanizatsiya, Farg‘ona viloyati, Qo‘qon xonligi.

Jahon tarixida shaharlar jamiyat va davlat taraqqiyotining asosiy ko‘rsatkichi sifatida ilk davlatchilik davridan boshlab muhim ahamiyat kasb etib kelgan. XXI asr boshlariga kelib fan va texnika taraqqiyoti natijasida dunyo mamlakatlarida sodir bo‘lgan urbanizatsiya jarayonlari ta’sirida shahar madaniyati jadal rivojlanib o‘zgarib bormoqda. Jahon tarixshunosligida shaharlar tarixini tadqiq etishning ilmiy ahamiyati eng avvalo har bir shaharning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirishda tarixiy omillarni e’tiborga olish zaruriyati bilan belgilanadi. Chunki, shaharlar rivoji o‘z tarixi davomida rivojlanish, turg‘unlik va inqiroz davrlarini bosib o‘tgan.

Qo‘qon xonligi davrida O‘sh bekligining markazi bo‘lgan. O‘sh shahrida XIX asrning 70-yillarida 1000 ta uy-joy mavjud edi. Shahar nisbatan kichik va aholisi kam bo‘lishiga qaramay, strategik ahamiyatga molikligi sababli 1876 yilda Farg‘ona viloyati tarkibidagi O‘sh uezdi markazi sifatida belgilanadi va bu erga harbiy kuchlar joylashtiriladi. Shaharning janubida rus aholisi uchun yangi manzilgohga, shaharga asos solingan.

Farg‘ona vodiysining sharqida Oqbo‘ra daryosining ikki tomonida joylashgan O‘sh shahri XVIII asrda Qo‘qon xonligi tarkibiga kirdi. 1876 yili bu qadimiy shahar ham Turkiston general gubernatorligining Farg‘ona viloyati tarkibiga kiritildi. O‘sh shaharining savdo va strategik ahamiyatidan kelib chiqib bosqinchilar bu erda katta garnizonlarini joylashtirdilar. Rus va evropaliklar uchun mo‘ljallangan yangi shahar eski O‘shning janubida, Oqbo‘ra daryosining chap tomonida istehkom qurish bilan boshlandi.

Ruslar bosqinidan keyin rus harbiy muhandislari ruslar yashaydigan manzilgohlarni shaharlarning eski qismida loyihalashtirib, joylashtirganlar. Bu manzilgohlar "rus" yoki "yangi shahar" deb atalgan. "Eski" va "yangi" qismdan iborat shaharlarni "ikki strukturali" yoki "ikki qismli" shahar deyish mumkin[2, c- 28]. Farg‘ona vodiysidagi barcha shaharlar Yangi va Eski Marg‘ilondan tashqari shunday "ikki qismli" bo‘lgan. Rus muhandislari evropalik aholi uchun joylarni maxsus hay’at va tanlangan joyning sanitariya-iqlim sharoitini tekshirib bergan mutaxascis ishtirokida belgilaganlar. 1879 yili Andijon va O‘sh shaharlarining me’mori qilib injener-poruchik Nemishiy tayinlanganidan so‘ng yangi shaharning qurish ishlari tezlashib ketadi [3,3-varaq].

1911-yildagi O‘sh shaharining rejasiga qaraganda uning yangi qismi shaharning markazidagi katta maydonni egallagan.

Uning trapesiya shaklidagi rejasiga o‘rtasida kazarmalar, qolgan joylarida xo‘jalik binolari qurilgan edi. 1891 yilgacha ruslar shahri 1 verst(qadimgi rus o‘lchov birligi. Qiymati 500 sajenga, ya’ni 1,0668 km ga teng) uzunlikdan iborat bo‘lib, Oqbo‘ra daryosi bilan qarama-qarshi tomonda bir ko‘chadan iborat bo‘lgan[1, c-109]. 1880 yili qal’adan uncha uzoq bo‘lmagan masofada uezd boshlig‘ining uyi, 22 800 kv.m. maydonda esa Jome maydoni, janubroqda esa 1910 yiligacha cherkov vazifasini o‘tagan ibodat uyi qurildi. Undan shimolda diniy maktab, harbiylar uchun turar joy, atrofida esa ma’muriy binolar qurildi.

XX asrning boshlarida O‘shning “ruslar shahri” eski qism bilan qo‘shilib ketdi. Ruslar shaharning janubiy qismidagi harbiy lagerlarga joylashdi. Shaharning sharqqa qarab kengayishiga Oqbura daryosi monelik qilgan. Daryoning g‘arbiy sohilida ruslar xiyobon bino qildilar. O‘shning yangi qismida bittagina mehmonxona binosi, magazin va do‘konlar, savdo rastalari bino etildi. Shaharning g‘arbida Verxniy (Piyon)bozor ham bo‘lgan.

Bu erda sanoat xududlari, zavod va fabrikalar ham bo‘lmagan. Unda bittagina Orlov degan tadbirkorning pivo zavodi (shahar xiyoboning janubida) bo‘lgan. 1913 yili O‘sh shahrida 915 rus aholi, eski qismida esa 44 mingdan ortiq aholi yashagan. O‘sh temir yo‘l va muhim sanoat markazlaridan uzoq bo‘lganidan XX asrning boshlarida ham chegaradagi harbiy istehkom vazifasini o‘tagan.

1910 yilgi ststistik ma’lumotlariga qaraganda Farg’ona viloyatning asosiy shaharlarida aholining 19,1 % yashagan. O‘sh shahrida 47149 (23027 nafari ayol)[7, c-2-3] yashagan, O‘shda 1 ta shahar, 11 volost (ulardan 7 ta o‘troq aholi jamoasi, 3 ta ko‘chmanchilar ovullari va 1 ta aralash jamoa) bo‘lgan[8, c-1].

1917 yil Oktyabrda Rossiyadagi amalga oshirilgan davlat to‘ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga yangi sotsial demokratlar keldi. Buning oqibatida Turkistonda ham zo‘rlik bilan mavjud hukumat tugatilib, sovetlar hukmronligi o‘rnatildi. Sovet hokimiyatining boshqaruv organlari tashkil etila boshlandi[10, b- 50-51].

Turkistonda sovetlar hukumatini shakllantirishda mahalliy sovetlar tarkibiga tub erli aholi vakillari kiritilmadi. Shu tariqa 1917 yil oxiri - 1918 yil yanvar oyiga kelib Farg‘ona vodiysining Andijon, Namangan, Skobelev, O‘sh kabi katta shaharlarida sovet hokimiyati va boshqaruv organlari qaror topdi

1917 yilda o‘lkada sovet hokimiyati o‘rnatilgan bo‘lsa-da, o‘lkaning ma’muriy-hududiy tuzilishida hamon eski holat saqlanib qolgan edi. 1918 yilning aprelida Turkiston ASSR tashkil etilgan. Ma’muriy jihatdan Farg‘ona, Samarqand, Sirdaryo, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlariga bo‘lingan.

Farg‘ona vodiysida 7 ta shahar bo‘lib, ular viloyatga bo‘ysunuvchi Yangi Marg‘ilon, 4 ta uezd (Qo‘qon, Namangan, Andijon, O‘sh), 2 ta uezdsiz (Eski Marg‘ilon, Chust) shaharlariga bo‘lingan. 1917 yilda Farg‘ona viloyati aholisidan 2 mln 45 ming nafari qishloqlarda va 409.234 ming nafari esa shaharlarda istiqomat qilgan.

1914 yil Farg‘ona vodiysi shaharlaridagi aholi soni:

№	Shaharlarning nomlari	Jami
1	Qo‘qon	120.984
2	Andijon	79.732
3	Namangan	76.297
4	O‘sh	48.160
5	Marg‘ilon	46.613
6	Chust	20.012
7	Skobelev (Farg‘ona)	13.503
Viloyat bo‘yicha (shahar aholisi)		**405.301**

Mustamlaka sharoitida Farg‘ona viloyatida sodir bo‘lgan jadal o‘zgarishlar shaharlar hayotiga ziddiyatli ta’sir ko‘rsatgan. Bu jarayonlarning vodiydagi yirik shaharlar: Marg‘ilon, Andijon, Qo‘qon, Skobelev, Namangan, O‘sh kabi shaharlar hayotida namoyon bo‘lgan. Viloyat va uezd markazi maqomidagi shaharlarga kelgan kelgindi aholi uchun qurilgan yangi shaharchalar soni yil sayin ko‘payib borganligida ko‘rishimiz mumkin. Masalan, 1913 yilda Farg‘ona viloyati shaharlarida 29.972 nafar rus aholisi yashagan bo‘lsa, 1917 yilga kelganda ularning soni 43.978 nafarga yetgan.

1917-yil Farg‘ona vodiysi shaharlaridagi aholi soni:

№	Shaharlarning nomlari	Jami
1	Qo‘qon	118.854
2	Andijon	82.235
3	Namangan	78.942
4	Eski Marg‘ilon	49.319
5	O‘sh	48.136
6	Chust	19.856
7	Skobelev (Farg‘ona)	11.892
Viloyat bo‘yicha (shahar aholisi)		**409.234**

Yuqorida berilgan jadvalda berilgan statistik ma’lumotga ko‘ra, Farg‘ona vodiysi shaharlarida 1914 yilda shahar aholisi 405.301 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 1917 yilda esa 409.234 nafarni tashkil qilgan.

Farg‘ona viloyati shaharlari aholisining soni 1923 yilda 1917 yilga qaraganda 50,6 % kamayib ketgan. Ya’ni 1917 yilda Farg‘ona viloyati shaharlari aholisi 409.234 kishidan[4, 93-varaq] iborat bo‘lsa, 1923 yilga kelib ularning soni 207.191 kishiga[5, 328-varaq] tushib qolgan.

1914, 1917 va 1923 yillarda Farg‘ona vodiysi shaharlari aholisini ro‘yxatga olish natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni taqqoslaymiz:

Shaharlar aholisining soni:

№	Shahar nomi	1914	1917	1923
1	Qo‘qon	120.984	118.854	49.739
2	Andijon	79.732	82.235	52.735
3	Namangan	76.297	78.942	48.915
4	O‘sh	48.160	48.136	14.508
5	Marg‘ilon	46.613	49.319	29.725
6	Chust	20.012	19. 856	8.758
7	Skobelev (Farg‘ona)	13.503	11.892	11.569
Jami		**405.301**	**409.234**	**207.191**

1922 yil 15 fevralda ma’muriy hududiy bo‘linishga ko‘ra, Turkiston Respublikasi 6 ta viloyatga bo‘lingan. Unga ko‘ra, Farg‘ona viloyati beshta uezddan tashkil topgan edi. Namangan uezdi 29 ta volostdan, O‘sh uezdi 14 ta volostdan, Andijon uezdi 23 ta volostdan, Qo‘qon uezdi 23 ta volostdan, Marg‘ilon uezdi 20 ta volostdan iborat bo‘lgan[6, 20-varaq].

O‘sh shahrida 1918 yilda 14 ta bir bosqichli maktablar tashkil qilingan . Ularning 12 tasi o‘zbek va 2 tasi esa rus maktablari bo‘lgan. Biroq o‘qituvchilar sonining kamligi hamda maktab jixozlari va o‘quv qurollari etishmasligi tufayli mavjud 12 ta

o‘zbek maktablaridan atigi 6 tasi ishlagan. Shuningdek, ikki bosqichli 1 ta rus maktabi ham bo‘lib, o‘qituvchi etishmasligi oqibatida maktab faoliyat ko‘rsatmagan. 1922 yilga kelib O‘sh shahrida 1 ta rus maktabida 156 nafar bola hamda 15 ta mahalliy maktabda 700 nafarga yaqin bolalar ta’lim olgan . Shu bilan birga, shaharda 1 ta bolalar maktab internati va 1 ta mahalliy ayollar uchun tashkil qilingan maktab ham faoliyat ko‘rsatgan.

1924 yilda O‘sh uezdi aholisi 123132 kishini tashkil etgan. Shaharda 30 o‘ringa mo‘ljallangan kasalxona bo‘lib, unda jarrohlik, terapevt, yuqumli kasalliklar, akusher-ginekologiya bo‘limlari aholiga xizmat qilgan[9,c-283]. Shaharning yangi va eski qismlarida ham ambulatoriyalar bo‘lib, har ikki muassasada bitta shifokor ishlagan.

Xulosa qilib aytganda, 1876–1924 yillarda O‘sh shahri va Farg‘ona vodiysi shaharlari Rossiya mustamlakachiligi hamda sovet boshqaruvi ta’sirida katta o‘zgarishlarga uchradi. Shaharlarda “eski” va “yangi” qismlar shakllanib, ma’muriy va harbiy ahamiyati ortdi. XX asr boshlarida aholi soni va shaharlar rivoji o‘sgan bo‘lsa, 1917 yildan keyingi siyosiy voqealar natijasida iqtisodiy va demografik inqiroz yuzaga keldi. Shu bilan birga, ta’lim va tibbiyot sohalarida dastlabki islohotlar amalga oshirildi. Bu davr Farg‘ona vodiysi shaharlari tarixida muhim va ziddiyatli bosqich hisoblanadi.

References

1. Кушелевский В.И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Том II. – Новый Маргелан: Ферганский областной статистический комитет, 1891. – 479 с.
2. М.А. Юсупова. Полвека трансформации архитектуры Узбекистана. На примере «новых городов» Ферганской долины конца XIX – начала XX вв. // Научный редактор: Э.В. Ртвеладзе. – Ташкент, 2005. – 176 с.
3. O‘zR MDA. I-16-fond, 1-ro‘yxat, 30779 ish, 3-varaq.
4. O‘zR MDA, I.1044-fond, 1-ro‘yxat, 19-ish, 93-varaq.
5. O‘zR MDA, R.17-fond, 1-ro‘yxat, 108-ish, 328-varaq.
6. O‘zR MDA, R.17-fond, 1-ro‘yxat, 687-ish, 20-varaq.
7. Статистический обзор Ферганской области за 1910 год. – Скобелев: Типография Ферганского Областного Управления, 1912. – 185 с.
8. Статистический обзор Ферганской области за 1910 г. – Скобелев, 1912. – 185 с.
9. Средне-Азиатский медицинский журнал. – Т. 5–6. – Июнь. – Ташкент: Типография «Востоказгосиздат», 1924. – 300 с.
10. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / тузувчилар: Жўраев М., Нуруллин Р., Камолов С. ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б.